

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Matqulov	
Nominative field of the concept "Wrestling" in English and Uzbek.....	372
D.M.Uktamovna	
“Mehrobdan chayon” va “Tanazzul” romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligi ...	377
M.B.Siddiqov	
Urush nogironlarini ishga joylashtirishda tibbiy mehnat ekspert komissiyalarning roli.....	381
S.S.Abdullayev, D.M.Obidova	
Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi	387
R.I.Madaliyev	
Artpedagogika vositasida (teatr sa‘nati orqali) talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari	391
D.Z.Xudaykulova	
Bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlik qilish metodlari.....	395
Sh.A.Dosbayeva	
Mantiqiy fikrlash mashg‘ulotlarining didaktik ta‘minotini takomillashtirish.....	402
D.A.Xomidova	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyatini rivojlantirish.....	408
B.S.Sharipova	
Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini o‘quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	412
T.S.Axmedova	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat dasturidan foydalanish	416
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	420
A.E.Normatov	
Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarini suv o‘simliklari yordamida tozalash	425
I.O.Umarov	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta‘lim talabalarida o‘quv-jangovar sifatlarini rivojlantirish metodikasi	428
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchligi muammosi.....	433
B.Q.Qurbonova, M.Esonmirzayeva	
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni tarbiya fani asosida milliy kasibga yo‘naltrishning usul va metodlari.....	437
S.M.Boboraximov	
Kichik sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasida klasterli tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish zarurati.....	441
N.A.Akbarova	
Farg‘ona viloyati musiqa maktablarining respublika va xalqaro tanlovlardagi ishtiroki va natijalari	445
A.A.To‘raxanov, A.A.Ergashev	
Alohida ta‘lim ehtiyojiga ega o‘quvchilar muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning klaster mexanizmlari	450
M.M.Abdurahmonova, M.Suyumova	
Umumta‘lim muassasalarida ijtimoiy ish amaliyotini amalga oshirish (Rossiya Federatsiyasi misolida).....	457



UO'K: 364.013: 94(575.172)

URUSH NOGIRONLARINI ISHGA JOYLASHTIRISHDA TIBBIY MEHNAT EKSPERT KOMISSIYALARNING ROLI**РОЛЬ МЕДИКО-ТРУДОВЫХ ЭКСПЕРТНЫХ КОМИССИЙ В ПРИЕМЕ НА РАБОТУ ИНВАЛИДОВ ВОЙНЫ.****THE ROLE OF MEDICAL LABOR EXPERT COMMISSIONS IN THE EMPLOYMENT OF WAR DISABLED****Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich**

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti.

Annotatsiya

Mazkur maqolada urush nogironlarini ishga joylashtirish, mehnat sharoiti va undagi muammolar, salomatligini yo'qotib, nogiron bo'lib qolganlarni tibbiy mehnat ekspert komissiyalari ko'rigidan o'tqazish, komissiya faoliyati va undagi kamchiliklar hamda nogironlarni kasb-hunarga qayta tayyorlash va ularni muqobil mehnat bilan ta'minlash masalalari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассмотрено трудоустройство инвалидов войны, условия труда и проблемы в нем, экспертиза врачебно-трудовых экспертных комиссий для лиц, потерявших здоровье и ставших инвалидами, деятельность комиссий и ее недостатки, а также профессиональная переподготовка инвалидов и их Альтернативная работа, анализируются вопросы обеспечения.

Abstract

In this article, employment of war disabled people, working conditions and problems in it, examination of medical labor expert commissions for those who have lost their health and become disabled, commission activity and its shortcomings, as well as vocational retraining of disabled people and their alternative work the issues of provision are analyzed.

Kalit so'zlar: Tibbiy mehnat ekspert komissiya, pensiya, Ijtimoiy ta'minot Xalq Komissarligi, nogironlar kooperatsiyasi.

Ключевые слова: Врачебно-трудовая экспертная комиссия, пенсия, Наркомат социального обеспечения, сотрудничество.

Key words: Medical labor expert commission, pension, People's Commissariat of Social Security, cooperation.

KIRISH

Ma'lumki, Ikkinchi jahon urushida minglab kishilar jang maydonlaridan nogiron sifatida qaytib keldilar. 1945-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 62 795 kishi, dekabr holatida esa 70 384 kishi urush nogironi sifatida ro'yxatga olingan[18;17]. Nogironlarni mehnatga jalb qilish, ularni korxonalar va muassasalarga ishga kirishga ko'maklashish bilan birga, avvalo ularning qobiliyati, qaysi bir sohada o'z sog'liklariga shikast yetkazmagan holda ishlab keta olishi hisobga olingan. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti 1942-yil 29-iyunda 899-son qarori qabul qilingan edi[1; 22-23]. Unga ko'ra, korxonalar va tashkilotlarning urush nogironlarini o'ziga mos ish bilan ta'minlash va kasb o'rgatish ta'kidlab o'tilgan. Nogironlik oqibatida o'zlarining kasb-hunarlarida ishlay olmaganlarida, ularni yangi kasbga o'qitish, o'rgatish muhim hisoblangan. Urushda jarohat olib, o'z yurtlariga qaytgan harbiy xizmatchilarni olingan jarohatiga qarab, nogiron guruhlariga ajratish, ularning ahvolidan xabardor bo'lish, uy-joy bilan ta'minlash, tibbiy xizmat ko'rsatish, madaniy-maishiy ahvolini yaxshilash, turmush farovonligini oshirish borasida muhim ishlar amalga oshirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ikkinchi jahon urushi davri va undan keyingi yillarda respublikada ijtimoiy himoya masalalari: urush nogironlari va harbiy xizmatchilarning hamda ularning oila a'zolariga ko'rsatilgan

ijtimoiy yordam O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan fondlarida o'z aksini topgan. Mavzuni yoritishda asosan arxiv hujjatlaridan foydalanildi. Shulardan R-96-fond o'zining muhimligi bilan ajralib turadi. "O'zbekiston SSR ijtimoiy ta'minot xalq komissarligi" deb nomlangan ushbu fond hujjatlarida ijtimoiy himoya masalalariga oid O'zbekiston SSR Ijtimoiy ta'minot ministrilgining hujjatli materiallari, buyruqlari, qarorlari, farmoyishlari, turli majlislar bayonnomalari, ko'rsatmalar, memorandumlar, ma'lumotnomalar, rejalar, hisobotlar, shtat jadvallari hamda yozishmalari haqida qimmatli ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Birinchidan, urush nogironlarini ishga joylashtirish va ularga yangi kasb o'rgatish, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lmagan nogironlarni esa maxsus uylarga-internatlarga[8;5]4 joylashtirish uchun korxonalar, muassasa va tashkilotlarning rahbarlari zimmasiga har bir kishining qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olib, qisqa vaqt ichida ish berish va ularni zarur bo'lgan ishlab chiqarish sharoiti bilan ta'minlash majburiyati yuklatilgan. Nogironlarni ishga joylashtirishdan sovet hukumati ikkita maqsadni ko'zlagan. Birinchidan, bu bilan ularning moddiy ahvolini yaxshilash nazarda tutilgan bo'lsa, ikkinchidan esa ishchi kuchiga bo'lgan talabni qondirish hisoblangan. Chunki urush yillarida ko'plab kishilarning armiya saflariga jalb etilishi ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirib yuborgan edi. Qoida tariqasida, kasallikning og'ir shakllari bo'lgan birinchi va ikkinchi guruh nogironlar maxsus artellarga yuborilgan[5; 103].

Nogironlarga berilgan imtiyozlar ichida ularning nogironlik sabablarini aniqlashda Tibbiy mehnat ekspert komissiyalari (VTEK5)lar ko'rigidan o'tish huquqi berilishi ham katta ahamiyatga ega. Mehnatga qobiliyatlilik qay darajada yo'qotilganiga qarab ma'lum nogironlik guruhi tayinlanib, qonunga muvofiq barcha nogironlar 3 guruhga bo'lingan. Nogironlikning boshlanish sababi juda muhim ahamiyatga ega hisoblangan. Chunki pensiya olish huquqi va uning miqdori shunidek turli imtiyoz va yengiliklardan foydalana olish ana shu holatga bog'liq bo'lgan[3; 28-29]6. Urushning ikkinchi yilida III guruh nogironlarini korxonalar yoki muassasalarga yanada uyushgan holda jalb qilish talab qilingan. Ijtimoiy ta'minot organlariga 55 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 45 yoshgacha bo'lgan ayollarni yashash joyidagi tibbiy - mehnat ekspert komissiyalari xulosalarini hisobga olgan holda korxonalar va muassasalarga yuborish vazifasi yuklatilgan. Ushbu tadbir III guruh nogironlar, sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalari bo'lgan ayollarga tegishli emas edi. Mabodo III guruh nogironlar ishlashni xohlamasa, hech qanday jazo qo'llanilmagan. Faqatgina ularga nisbatan qo'llanilgan "pensiya sanksiyasi" qo'llanilgan[4; 131]. Ishga yuborilishi kerak bo'lgan, ammo ishga kirmagan III guruh nogironlariga pensiya to'lash to'xtatilgan.

SSSR Xalq Komissarlari Kengashi 1942-yil 5-dekabrda tibbiy mehnat ekspert komissiyalari to'g'risidagi nizomni hamda 1943-yil 13-maydagi 9898-sonli qarori bilan tibbiy mehnat ekspertizasi ishi keskin o'zgardi[17; 44]. Qarorga ko'ra, tibbiy mehnat ekspert komissiyalari ikkinchi va uchinchi guruh nogironlari orasidan mehnatga layoqati cheklangan shaxslarni tezkorlik bilan aniqlab, ularni sanoat va qishloq xo'jaligiga mehnat zaxirasi sifatida o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu sababdan ham yildan yilga TMEK soni oshib borganligini ko'rish mumkin. 1942-yilda mavjud bo'lgan 53 TMEK o'rniga, 1943-yilda 172 TMEK tashkil etilgan[15; 62]7. Urush nogironlari kasalxonadan chiqarilgandan so'ng ikki oy ichida tibbiy-mehnat ekspert komissiyasida ko'rikdan o'tkazilishi majburiy hisoblangan. Pensiya faqat kasalxonadagi harbiy tibbiy komissiya tomonidan berilgan kasallik to'g'risidagi guvoynoma asosida, ushbu harbiy xizmatchining kasalxonada qancha miqdorda bo'lganligi va tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi sanasi, muhri va nogironlik guruhi ko'rsatilgan holda berilgan[7; 18].

SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1942-yil 5-dekabrda TMEK to'g'risidagi yangi nizomni tasdiqlagan qaroriga muvofiq O'zbekiston SSR Ijtimoiy ta'minot xalq komissarligi 1943-yilda tuman

⁴ 1942-yilda urush nogironlari uchun internat uylar ochilgan.

⁵ ВТЭК – Врачебно-трудовая экспертная комиссия (Tibbiy mehnat ekspert komissiyalari). Keyingi o'rinlarda TMEK ishlatiladi.

⁶ TMEK harbiy xizmatchining nogironlik sabablari to'g'risidagi xulosani chiqarishda, avvalo quyidagi ifodalardan birini qo'llagan: 1) SSSR ni himoya qilish vaqtida yarador bo'lish; 2) harbiy xizmat vazifasini bajarish paytida olingan yaradorlik; 3) frontda kasallanish; 4) harbiy xizmatni o'tash vaqtida olingan kasallik; 5) harbiy xizmat vazifasini bajarish bilan bog'liq bo'lmagan baxtsiz hodisa tufayli yarador bo'lish.

⁷ Toshkentda – 21 ta, Samarqandda – 22 ta, Farg'onada 21 ta, Andijonda – 16 ta, Namanganda – 10 ta, Buxoroda – 18 ta, Qashqadaryoda – 13 ta, Surxondaryoda 11 ta, Xorazmda – 11 ta Qoraqalpog'iston ASSRda – 12 ta, jami – 172 ta.

ILMIY AXBOROT

kengashlari qoshida mavjud bo'lgan TMEKlar tugatilib, ularning o'rniga sog'liqni saqlash xalq komissarligi poliklinikalari qoshida tashkil etdi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 1943-yilda TMEK orqali 307 ming nafar nogironlar tibbiy ko'rikdan o'tgan[14; 29]. 1944-yil 6 oy ichida tibbiy mehnat ekspert komissiyalaridan o'tganlar soni 100 ming kishini tashkil etdi[18; 40]. Deyarli har bir tumanda tibbiy mehnat ekspert komissiyasi mavjud bo'lib, bu aholining keng qatlamlariga xizmat ko'rsatishni sezilarli darajada yaqinlashtirgan.

Shu bilan birga, tibbiy mehnat ekspertizasi ishida ham ayrim kamchiliklarni ko'rish mumkin. Masalan, aksariyat hududlarda tibbiy mehnat ekspertizasining sifati pastligicha qolgan. Ko'pgina TMEKlar kerakli miqdordagi tibbiy mutaxassislar bilan ta'minlanmagan. Ba'zi TMEKlar nogironlik guruhini aniqlashga yuzaki yondashganlar, kasallikning tashxisini batafsil tushunmasdan ular no'to'g'ri tashxis qo'yish hollatlari ham kuzatilgan. Tekshiruvlar natijasida bir nechta hududlarda nogironlik guruhini noto'g'ri belgilash holatlari aniqlangan. Jumladan, Andijon shahrida tibbiy mehnat ekspert komissiyasi bergan xulosasiga ko'ra 14 ta kishi tibbiy ko'rikdan o'tqazilganda, ulardan 1-guruh nogironlar 2 ta, 2-guruh nogironlar 12 tani tashkil qilgan. 3-guruh nogironlar esa tan olinmagan. Biroq takroriy tekshirish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, 3 kishi mehnatga layoqatli deb topilgan, 2-guruh nogironlari 4 ta, 3-guruh nogironlari 7 ta, 1-guruh nogironlari esa aniqlanmagan[18; 40]. Farg'ona viloyati Rishton TMEK G.A.Sarbasovaga 2-guruh nogironligi tayinlangan. Aniqlangan tashxisga (miokardit) ko'ra, unga hech qanday guruh berilmaslik to'g'risida buyruq berilgan, chunki u bu vaqtda ish bilan band bo'lgan. Oxun-Zoda Ismoilga chap tirsak bo'g'imi ankilozi (bo'g'imning bukilmaydigan, qimirlamay qotib qolishi – M.S) tashxisi bilan 2-guruh nogironligi aniqlangan. Maxkamov Tojiboyga chap yelkasi chiqqanligi uchun 2-guruh nogironi. Yuqoridagi 2-guruh deb tashxis qo'yilgan nogironlarning barchasi 3-guruh nogironi sifatida tan olinishi kerak edi. Marg'ilon poliklinikasi shifokori Kroxina sil kokoitiga (Koksit – chanoqsimon bo'g'imning yallig'lanishi, - M.S) chalingan va unga 2-guruh nogironi tayinlangan[17;45-46]. Nogironlik guruhini aniqlashning bu kabi ishlar xatolik natijasida emas, balki aniq suiiste'mol qilingan.

Ikkinchidan, nogironlarni ishga joylashtirish, ularga tegishli mehnat sharoiti yaratib berishda nogironlar koorperatsiyasi muhim o'ringa ega[10; 675]8. Nogironlar koorperatsiyasining nizomga ko'ra, nogironlarni mehnatga joylashtirish, Ijtimoiy ta'minot Xalq Komissarligi (ITXK)9 va O'zkoopinsovet tomonidan nashr qilinadigan qo'llanmaga asosan, ijtimoiy ta'minot idoralari tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, nizomda nogironlar artellarida kimlar a'zo bo'lib kirishlari haqida ham ma'lumotlar berilgan[10; 676]. Yuqorida qabul qilingan qarorga ko'ra, nogironlar kooperatsiyasining o'zaro yordam respublika va viloyat kassalari tashkil qilinib, vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lib qolgan vaqtda (kasalik, homiladorlik, tuqqanlik, kasal bo'lib qolgan oila a'zolarini davolash) kassaga ishtirok qilivchilarga yordam pullari berilgan.

1941-yil 26-28-may kunlari O'zbekiston SSR Ijtimoiy ta'minot xalq komissarligida nogironlar kooperatsiyasi tizimi vakillari ishtirokida III respublika yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda ikki masala tinglanib, muhokama qilingan. Birinchisi O'zbekiston SSR ITXKning 1940-yildagi faoliyati yakunlari, ikkinchisi esa nogironlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha ijtimoiy ta'minot organlarining vazifalari to'g'risida muhokamalar bo'lgan[12; 12]. Yig'ilish oxirida XVIII partiya konferensiyasi qarorlaridan kelib chiqadigan navbatdagi amaliy vazifalar belgilab berilgan.

Nogironlar kooperatsiyasi faoliyatida sezilarli kamchiliklar ham uchrab turgan. Jumladan, 1941-yil 28-iyunda O'zSSR Ijtimoiy ta'minot xalq komissarligining "O'zbekiston SSR nogironlari kooperatsiyasi faoliyatini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha ishlarning holati va chora-tadbirlari" nomli yig'ilishda nogironlarni ish bilan ta'minlash sust darajda olib borilganligi qayd etilgan. Vashkov ma'ruzasiga ko'ra, 1939-1940-yillarda nogironlik artellarida 2572 kishi ishlaganligi, 1941-yilda esa nogironlar kooperatsiyasi respublikadagi nogironlar umumiy sonining 15% dan ko'p bo'lmagan qismini birlashtirilganligi haqida ma'lumot bergan. O'zbekiston SSRda uyda ishga joylashtirilishi kerak bo'lgan 1 va 2-guruh nogironlarini ishga joylashtirish umuman qoniqarsiz

⁸ O'zSSR Sovetlar MIQ va XKS ning 1938-yil 17-iyuldagi N-58 qarori asosida nogironlar koorperatsiyasi haqidagi nizomni tasdiqlangan edi. Nizomga ko'ra, Nogironlar koorperatsiyasi, mustaqil kooperativ sistemasi bo'lib, mustaqil ravishda va o'zaro yordamlashish asosida mehnatga joylashtirish yo'li bilan, nogironlarni ijtimoiy qurilishga jalb etish, ularning moddiy-maishiy ahvollarini yaxshilash va ijtimoiy siyosiy va madaniy saviyalarini ko'tarish maqsadini ko'zda tutgan.

⁹ Keyingi o'rinlarda ITXK shaklida qo'llaniladi.

davom etib, bor-yo'g'i 1400 kishi ish bilan ta'minlanganligi qayd etilgan[11; 6]. Shuningdek 1940-yil davomida 1048 nafar nogironligi bo'lgan fuqarolar davlat organlari va korxonalariga ishga joylashtirish rejasiz amalga oshirilgan. Nogironlarni kasb-hunar ta'limi muassasalari va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida o'qitish rejasida 1017 nafar nogironligi bo'yicha o'qishni tamomlash ko'zda tutilgan bo'lsa, amalda 723 nafar nogiron o'qishni bitirib, rejaning 71,1 foizi bajarilgan[12; 11]. 1941-yilning 1-yarim yilligida 1157 nafar fuqaroni ish bilan ta'minlashni nazarda tutilgan bo'lsada, biroq nogironlar koorperatsiyasi rejani nafaqat bajarmadi, balki shu vaqt ichida 123 nafar nogironligi bo'lgan shaxs tizimdan chiqib ketdi[11; 6]. Bunga sabab esa birinchidan, urushi nogironlarini ishga yuborishda ayrim ijtimoiy ta'minot organlari ba'zi hollarda nogironlarning imkoniyati, xohish va malakasini inobatga olmaganlar. Natijada ko'pincha sog'ligi tufayli ishdan ketish holatlari yuz bergan. Ikkinchidan, ishlab chiqarish sharoitlarining qoniqarsizligi va ishlab chiqarishning yetarli darajada mexanizatsiyalashtirilmaganligi. Uchinchidan, mahalliy sanoat kooperatsiyasi xodimlariga nisbatan ushbu ishchilarning ish haqining kamligi. Yuqoridagi omillar natijasida nogironlarni koopertasiyaga jalb qilish susayishiga zamin yaratgan.

Urushning oxirgi yillarida nogironlar kooperatsiyasi urush va mehnat nogironlarini ishga joylashtirish va mehnatga tayyorlashga e'tibor qaratgangan bo'lsada, biroq bu borada ko'zlangan maqsadga erishilmadi. Jumladan O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti 1945-yilgi nogironlarni 5000 kishilik ish bilan ta'minlash rejasini tasdiqlangan bo'lsada, 1945-yil 1-avgust holatiga ko'ra, nogironlar kooperativlarida 1200 kishi ish bilan ta'minlangan xolos[17; 67]. Nogironlar kooperatsiyasi O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1945-yil 9-martdagi 282-sonli "urush nogironlarini kooperatsiya tizimiga ishga joylashtirish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlamadi, nogironlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, maxsus moslamalar o'rnatish va boshqalar bo'yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlarning salmoqli qismi bajarilgan [13; 117]. Nogironlar kooperatsiyasining bunday qoniqarsiz ish holatining sabablari quyidagilardan iborat: ushbu tizimda moddiy-maishiy sharoit bilan ta'minlanishi qoniqarsiz ahvolda ekanligi, ya'ni artellarda yotoqxona, oshxona, madaniy-ma'rifiy markazlar mavjud bo'lmaganligi, nogironlar kooperativlarida ishlash uchun ariza berganlar o'z holiga tashlab qo'yilishi hamda rahbarlarning mas'uliyatsizligi tufayli artellarning ahvoli ancha og'irlashgan.

Uchinchidan, nogironlarni kasb-hunarga qayta tayyorlash borasida ham muhim ishlar amalga oshirilgan. Nogironlarni mehnatga o'rgatish, ularning mehnatidan oqilona va samarali foydalanish uchun nogironlik xususiyatiga va ularning mehnat qobiliyatiga qarab yangi kasblarni o'rgatila boshlangan. Ayniqsa, jarohat yoki kasallik tufayli oldingi mutaxassisligi bo'yicha ishlash imkoniyatini to'liq yoki qisman yo'qotgan 1 va 2-guruh nogironlari jalb qilingan. 1943-yilda 1700 kishi kasb-hunar maktablarida, evakuatsiya kasalxonalarida quyidagi kasblar bo'yicha kasbiy tayyorgarlikni tugatganlar: haydovchilik, chizmachilik, buxgalterlik, telegrafchilik, kinomexanikchilik, sataroshlik, poyabzalchilik, chakana savdo tarmog'i va boshqalar[18; 35]. 1943-yilgi tayyorgarlik rejasi atigi 49 foizga bajarilgan xolos.

Keyingi yillarda ham bu borada aniq rejalar ishlab chiqilgan bo'lishiga qaramay, ijobiy natijasini bermadi. Masalan, 1944-yilda 6165 kishini mehnatga qayta tayyorlash rejalashtirilgan bo'lsada, aslida 3497 kishi yoki 56,7% o'qitilgan xolos[17; 25]. (boshqa arxiv hujjatlarida 6150 kishidan 3503 kishi o'qitilganligi qayd etilgan[19; 12])1944-yilning birinchi kvartalidagidan yuqoridagi kurs va maktablarni 1300 kishi bitirib chiqdi. Uyda ishlovchilar uchun 2 ta maxsus artel ham tashkil etilgan[9]. Ularning ko'pchiligi asosan birinchi va ikkinchi guruh nogironlari hisoblangan. Mehnatga tayyorlash rejasining to'liq bajarilmagani qator kasalxonalarining O'zbekistondan ko'chirilishi, urush nogironlari uchun bir qator maktab-internatlarning yetarli kadrlar bilan ta'minlanmagani bilan izohlanadi, shuningdek ozod qilingan hududlarda nogironlarning bir qismi o'z vataniga qaytishi tufayli talabalar sezilarli darajada kamaygan. Bundan tashqari, ushbu maqsadlar uchun zarur bo'lgan xom ashyo miqdorining etishmasligi ham mehnat ta'limini tizimli ravishda olib borishga imkon bermagan.

Shifoxonalarda nogironlarni o'qitib, qayta kasbga tayyorlash borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 1944-yilda 2600 kishi evakuatsiya kasalxonalarida o'qishni tugatdi. 1945-yilning birinchi yarmida esa haydovchilar, buxgalterlar, poyabzalchilar, proyektorlar va boshqalar kabi turli mutaxassisliklar bo'yicha 1812 kishi o'qishni tamomlagan[17; 27]. Biroq shuni alohida qayd etish joizki, mahalliy hokimiyat organlarining shifoxonalarda o'qitishga yordami yetarli

ILMIY AXBOROT

darajada bo'lmagan, buning natijasida shifoxonalardagi ustaxonalar xom ashyo va asboblarga muhtojligi ortib borgan. Samarqand viloyatidagi nogironlar kooperativ artellarida esa shifoxonalarda umuman mashg'ulotlar o'tkazilmagan. Evakuatsiya kasalxonalarida mehnatni o'qitish masalasida shuni ta'kidlash kerakki, evakuatsiya shifoxonalarning alohida rahbarlari bu borada qiziqish bildirmaganlar va ustaxonalar uchun tegishli binolar ajratmaganlar[19; 12].

Shuni e'tirof qilish kerakki, nogironlarni ishga joylashtirishda hamma joylarda ham jiddiy va ma'suliyat bilan yondashilmagan. Ba'zi kolxozlarda urush nogironlariga yaxshi munosabatda bo'lmalik holatlari ham uchrab turgan. Ayrim viloyat va shahar ijtimoiy ta'minot boshqarmalari tomonidan tizimli ravishda muassasa va korxonalarda o'rganishlar o'tkazilib, ishga joylashish holatlari tekshirilganda, "O'zsanoat" kengashi tomonidan mehnatga layoqatsiz shaxslarning ishlab chiqarish va moddiy-maishiy sharoitlari o'rganilmaganligi, Toshkent shahridagi "O'zsanoat" Kengashiga qarashli 32 ta artelning birortasida ham urush nogironlari uchun yotoqxona va umumiy ovqatlanish tashkil etilmaganligi aniqlandi[18; 31].

Buxoro viloyat ijtimoiy ta'minot bo'limining mudiri – A. Xojiboyevaning ma'lumotiga ko'ra Vobkent tuman Peshku qishloq sovetidagi "Guliston" kolxozning raisi Rajabov shu kolxozda ishlayotgan urush nogironlarining ehtiyojini qondirmagan. Nogiron Salomovning ishga joylashtirish haqidagi so'rovi rad etilgan. Faqat rayon ijtimoiy ta'minot bo'limining aralashuvi bilan Salomov kolxoz hisobchisining yordamchisi etib tayinlangan. Biroq Salomovga nisbatan ish sharoiti yaratilmaganligi bois u bu xizmatdan voz kechishga majbur bo'lgan[2].

Bundan tashqari, viloyat, shahar va tuman ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan 600 tagacha korxonalar, muassasa, tashkilot, sovxoz, MTSlarda tekshiruvlar o'tkazildi[19; 9]. Urush nogironlarini ishga joylashtirish jarayonida, shuningdek, Xalq komissarligi va markaziy muassasalar tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida bu borada hali ham katta kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Korxonalar va muassasalarda o'tkazilgan tekshirishlarda bo'lim rahbarlarining bu masalalar bilan shug'ullanmayotgani, nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilmayotgani, nogironlarni ish bilan ta'minlash masalasiga byurokratik qo'pol munosabatda bo'lib, eng muhim siyosiy ishni ikkinchi darajali ishchilarga ishonib topshirganligi aniqlangan.

O'zbekiston SSR Ijtimoiy ta'minot xalq komissarligi bir qator markaziy muassasalar, shuningdek, viloyat, shahar va tuman tashkilotlarida tekshiruvlar o'tkazgan, Toshkent shahar sovet va xo'jalik muassasalarida, Samarqand, Andijon va Buxoroda urushi nogironlarini ish bilan ta'minlashda qator kamchiliklar, ijtimoiy ta'minot xodimlarining ish bilan ta'minlanmaganligining ayrim jihatlari aniqlangan. Masalan, 1-sonli poyabzal fabrikasining kadrlar bo'limi boshlig'i Matveeva urush nogironi bo'lgan Dadashevni sog'ligi tufayli ish bermaganligi, urush nogironi P.Q.Karimovni ham bufetda ishga olishdan bosh tortish holatlari ham uchrab turgan[16; 28]. Aytish joizki, 1945-yil 1-mart holatiga ko'ra, respublikada 10738 nafar nogiron, jumladan, 2225 nafar 3 guruh va 7607 nafar 2 guruh nogironi ish bilan ta'minlanmagan[20; 120]. Bir qator tashkilotlarda ishlayotganlar uchun munosib turmush sharoiti yaratilmagan. Korxonalar va muassasalarda o'tkazilgan tekshirishlarda bo'lim rahbarlarining bu masalalar bilan shug'ullanmayotgani, nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilmayotgani, tegishli shart-sharoit yaratilmaganligi aniqlangan.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda urush nogironlariga e'tiborni kuchaytirish uchun yangi qonunlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti 1946-yil 1-iyulda "birinchi guruh urush nogironlariga korxonalar, tashkilot va muassasalarining otalig'ini amalga oshirish to'g'risida" 859-son qarorni qabul qilingan edi[1; 22-23]. Bu qarorda otaliq tashkilotlarning nogironlarga doimo g'amxo'rlik qilishi, ularni madaniy hayotga jalb qilishni hamda ularga doimo iqtisodiy jihatdan yordam berib turishi ta'kidlab o'tilgan edi. Chunonchi, davlat pensiyasi olish huquqi, protez-ortopedik buyumlar bilan ta'minlash, yangi kasb-hunarga o'rgatish, ishlab chiqarishda o'z salomatliklariga yarasha alohida sharoit berish va boshqalar ana shunday g'amxo'rlikning jumlasidandir.

"Sotsial ta'minot" jurnalida 1961-yilda e'lon qilingan bir maqolada "1946-yildayoq O'zbekiston SSR Ijtimoiy ta'minot ministrligi urush nogironlarini deyarli hammasini ishga joylashtirgan edi" - deb ma'lumot berilgan[6;7]. Biroq arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha 1946-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 70384 nafar nogironlardan ishsiz bo'lganlar 10145 kishini tashkil etib, shulardan 1-guruh nogironlari 1041 nafar, 2-guruh nogironlari 7215 nafar, 3-guruh nogironlari esa 1889 kishini tashkil qilgan[16; 27]. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti 1946-yil 22-

noyabrda armiyadan bo'shagan kishilarni ishga joylashtirishni tugalash haqida qaror qabul qildi. Boquvchisi bo'lmagan 1 va 2-guruh nogironlar uchun 10 ta nogironlar uylari tashkil qilindi[6; 7]. Urush nogironlariga qo'shimcha moddiy yordamlar ham berilib turilgan. Davlat tomonidan berilgan bu yordamlardan tashqari kolxozlarning o'zaro yordam kassalari tomonidan ko'plab yordam berilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, hukumat tomonidan nogironlarni ish bilan ta'minlash sohasida mukamal mexanizm ishlab chiqilmagan edi. Ikkinchidan, ba'zi hududlarda harbiy xizmatdan bo'shab kelgan kishilarning talab va ehtiyojlariga yetarlicha e'tibor berilmagan. Ularni ishga joylashtirish, tegishli mehnat sharoiti yaratib berishda nogironlarning manfaatlarini ifodalangan qaror va ko'rsatmalarini bajarishda sansalorlik, byurokratizm, intizomsizlikka yo'l qo'yilgan. Uchinchidan, shahar, tuman ijtimoiy ta'minot organlari nogironlarga ishga yo'llanma berish bilan o'z funksiyalarini bajarib bo'lingan deb hisoblar edilar. Ularning ishga joylashganlari bilan esa qiziqmasdilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. Pirmuhamedov. Umrboqiyalar xizmatida // "O'zbekiston sotsial ta'minoti", 1970-yil 3-son, 22-23 bet.
2. A. Hojiboyeva. Vatan urushi invalidlariga yanada ko'proq g'amxo'rlik qilaylik // "Buxoro haqiqati", 1945-yil 13-iyul
3. A.S.Tkachev. Invalidlik sabablari va ularni aniqlash // "O'zbekiston sotsial ta'minoti", 1972-yil 3-son, 28-29-bet.
4. E.I.Astraxan Развитие законодательства о пенсиях рабочим и служащим. – М., "Юридическая литература", 1971. С.131.
5. E.Astraxan, С.Братусь, В.Власов, А.Пускол. Льгот, пособия и пенсии военнослужащим и их семьям. – М.: Юридическое издательство НКЮ СССР, 1944. С 103.
6. Hikmat Sobirov. Inson to'g'risida buyuk g'amxo'rlik. // "Sotsial ta'minot" 1961-yil 4-son 7-bet.
7. Об утверждении инструкции о порядке назначения и выплаты пенсий по инвалидности военнослужащим рядового, сержантского и старшинского состава. Алма-Ата, КазОГИЗ, 1944. С.18.
8. Q. Mahkamova. G'alaba bayrami. "O'zbekiston sotsial ta'minoti", 1975-yil 2-son, 5-bet.
9. "Qizil O'zbekiston", 1944-yil 31-may.
10. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Qonunlar Oliy Sovet Prezidiumi farmonlari va hukumat qarorlari yig'indisi (Birinchi tom). – Toshkent. 1947. B. 675.
11. O'zR MA, R-96-fond, 2-ro'yxat, 343-yig'ma jild, 6-varaq.
12. O'zR MA, R-96-fond, 2-ro'yxat, 348-yig'ma jild, 11-varaq.
13. O'zR MA, R-96-fond, 2-ro'yxat, 349-yig'ma jild, 117-varaq.
14. O'zR MA, R-96-fond, 2-ro'yxat, 407-yig'ma jild, 29-varaq.
15. O'zR MA, R-96-fond, 2-ro'yxat, 408-yig'ma jild, 62-varaq.
16. O'zR MA, R-96-fond, 2-ro'yxat, 488-yig'ma jild, 28-varaq.
17. O'zR MA, R-96-fond, 2-ro'yxat, 499-yig'ma jild, 45-46-varaqlar.
18. O'zR MA, R-96-fond, 2-ro'yxat, 503-yig'ma jild, 17-varaq.
19. O'zR MA, R-837-fond, 32-ro'yxat, 4961-yig'ma jild, 12-varaq.
20. O'zR MA, R-837-fond, 32-ro'yxat, 5025-yig'ma jild, 120-varaq.